

ABDULLA AVLONIY HAYOT YO‘LI VA TARBIYAGA OID FIKRLARI TAHLILI

To‘ymurodova Gullola Normurod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Shonazarova Nozima Ruslanovna

Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Turdiyev Sog‘lombek Rahmat o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur dramaturg, nosir, jurnalist, davlat va jamoat arbobi, shoir, pedagogikaning asoschisi hisoblanmish Abdulla Avloniy hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar, uning pedagogik qarashlari, asarlarida aks etgan vatanparvarlik tuyg‘ulari haqida yozilgan. Bola tarbiyasi, maktab, ta’lim-tarbiya jarayonidagi qarashlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘z: Pedagog, jurnalist, musavvir, tarbiya, ta’lim, vatanparvarlik, ozodlik, hurlik, elchi, e’tiqod, pedagogik qarash, tahlil, madaniyat, ma’rifatparvar.

Annotation. This article contains information about the life and work of the famous playwright, novelist, journalist, state and public figure, poet, founder of pedagogy, Abdulla Avloni, his pedagogical views, patriotic feelings reflected in his works. They talked about their views on child upbringing, school, educational process.

Key words: Educator, journalist, artist, upbringing, education, patriotism, freedom, ambassador, faith, pedagogical vision, analysis, culture, enlightener.

Mashhur o‘zbek pedagogi, shoiri, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida to‘quvchi Miravlon aka oilasida tug“ilgan. Onasining ismi Fotima aya bo‘lgan. Bolaligi Mirobod mahallasining egri-bugri ko‘chalarida, ko‘pchilik qismini ruslar tashkil etgan temiryo‘l ishchilari bolalari orasida kechdi. Abdulla 7 yoshida O‘qchidagi eski maktabda Akromxon domladan savod chiqardi. 14 yoshida mahalladagi madrasaga bordi. Undan so‘ng esa, Mullabozor Oxundda tahsil ko‘rdi. Unda she’r yozishga bo‘lgan ishtiyoy 15-16 yoshlarida paydo bo‘ldi. U yoshlidan mustaqil mutolaa bilan shug‘ullanib, o‘z bilimini oshirib bordi. Mustaqil ravishda izlanib, rus, arab, fors tillarini o‘rgandi. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqa boshlagan gazetalarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma’rifatparvar sifatida tanildi va o‘lkadagi ijtimoiy-madaniy harakatchilikning faol namoyondalaridan biriga aylandi. XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergen muhim o‘zgarishlardan biri maktab o‘quv ishlaridagi o‘zgarish bo‘ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo‘silib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. Avloniy 1904-yilda Mirobodda, so‘ngroq Degrezda (1903-1914) shunday yangi usuldagagi yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi. 1907-yildan matbuot ishlarida faol ishtirok eta boshladi. 1909-1917 yillar Avloniy ijodiy faoliyatida katta burilish yasadi. U “Shuhrat” gazetasini va “Tong” jurnalini tashkil etishda, “Jamiyati xayriya”ni ochishda yetakchilik qildi. A. Avloniy “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomli to‘rt qismdan iborat to‘plamning birinchi kitobini, “Birinchi muallim” va “Ikkinci muallim” deb nomlangan o‘quv kitoblarini chop ettirdi. Abdulla Avloniy o‘ttiz yildan ortiqroq badiiy ijod bilan shug‘ullandi. Uning madaniyatimiz tarixiga qo‘sghan hissasi beqiyosdir. Ayniqsa, pedagogik faoliyati, ta’lim-tarbiya borasidagi ishlari ibratlidir. U Davlat ilmiy kengashida, Terminologiya qo‘mitasida, bir necha nashriyotlarda xizmat qildi. 1931 yilda O‘rta Osiyo davlat universitetining “Til bilimi” kafedrasida professorlikka tasdiqlandi. 1933-yilda Abdulla Avloniy o‘rta maktablarning 7-sinfi uchun adabiyot majmuasini tuzdi. Uning ta’limiy-axloqiy asarlari orasida “Turkiy guliston yoxud axloq“ kitobi alohida ahamiyatga egadir. Jadidchilik harakati namoyondalaridan biri

hisoblangan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda “Jamiyati xayriya” uyushmasini tashkil etadi. 1905-1917-yillarda matbuotdagi qizg‘in faoliyati, ko‘plab publitsistik maqolalari bilan “bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxmini sochg‘on” ham Abdulla Avloniy bo‘ldi. Avloniy o‘zi nashr etgan “Shuhrat” (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi.U Turkistonda birinchilardan bo‘lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta’sir ko‘rsatdi, ta’limni real turmush bilan bog‘lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o‘rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o‘tishdagi imtihonni joriy etdi, ta’lim tizimining dunyoviy yo‘nalishini kuchaytirshiga alohida e’tibor berdi. Uning “Birinchi muallim” (“Muallimi avval”, 1909), “Ikkinchi muallim” (“Muallimi soniy”, 1912) nomli darsliklari, “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Guliston muktab” (1917), “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (1909-1916, 6 qismdan iborat) kabi qo‘llanmalari maktablarda o‘qitilgan.Abdulla Avloniy o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib, o‘zbek xalq teatrini professional darajaga yetkazish uchun 1913-yilda “Turon” nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Abdulla Avloniy 1917-yil to‘ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy- ma’rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan edi. Abdulla Avloniy ilg‘or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag‘larga dunyoviy ilmlarni o‘qitadigan “Usuli jadid”, ya’ni yangicha ilg‘or usuldagagi maktablar ochishdi va bu maktablarda xalq bolalarini o‘qitishdi. Ular o‘z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, Vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatdilar. Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagagi maktablar ochdi. Maktablardagi o‘quv asbob- jihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag‘al kishilarning bolalari bo‘lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta’minlash maqsadida, do‘sstarining ko‘magida “Jamiyati xayriya” tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi. “Nashriyot” shirkati tuzib, Xadrada “Maktab

“kutubxonasi” nomli kitob do‘konini ochdi. Abdulla Avloniy 1918-yildan boshlab respublikamizda o‘qituvchilar uyushmasi, qorovullar, tunukachilar, konchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Sobiq eski shahar ishchi dehqon Ijroiya Qo‘mitasiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston respublikasi milliy Qo‘mitasining mas’ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug‘ullanadi. 1919-1920-yillarda Avloniy Afg‘onistonning Hirot shahridagi elchixonada bosh konsul bo‘lib ishladi. Xalqimiz o‘rtasida birodarlikni mustahkamlash sohasidagi olib borgan ishlari uchun Afg‘oniston shohi Omonullaxon tomonidan kumush soat bilan taqdirlandi. Bular Avloniyning tariximizdagi o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatadi. XX asrning 20-yillarida Avloniy turli ijtimoiy vazifalar bilan birga muallimlik kasbini ham davom ettirdi, savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. Abdulla Avloniy 1920-yildan boshlab Toshkentda tashkil qilingan o‘lka bilim yurtida, so‘ngra xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi. U xalq maorif institudida, turkfront harbiy maktabida (harbiy bilim yurti) o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1924-1929-yillarda O‘rta Osiyo davlat universiteti (SAGU) va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchilik qilish bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib bordi.

Abdulla Avloniyning mehnati yuksak taqdirlanib, unga o‘zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirish, xodimlar tayyorlashdagi uzoq yillik fidokorona mehnati uchun unga 1925-yilda “Mehnat qahramoni” unvoni, 1930-yilda mehnatsevarligi, ilmiy ishlari va asarlari uchun “O‘zbekiston maorifi zarbdori” unvoni berildi.

Abdulla Avloniy 1934-yilning 25-avgustida Toshkentda vafot etdi. Dastlab Botqin qabristoniga dafn qilingan, so‘ng rus qabristoni (komunistlar qabristoni)ga ko‘chirilgan. 2020-yilga kelib esa Olmazor tumanidagi “Chig‘atoy” qabristoniga ko‘chirib olib kelindi.

 -“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”

 -“Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim”

■ -“Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan muqaddas bir vazifadur”.

■ -“Kerak tarbiyat yoshlikdan kerak, Ulug‘ bo‘lsa lozim kelur g‘am yemak”.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog‘cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan iborat bo‘ladi. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birligida axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U bиринчи navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligini uqtiradi. “Turkiy guliston yoxud axloq “asari ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Adib kitobda ilm haqida shunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur”, - deydi.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu ulug‘ adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yosolarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyayev Sh.M. Biz milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettiramiz va uni yangi bosqichga ko‘taramiz.//Toshkent – 2017, “O‘zbekiston”, 593 b.
2. “Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari” uslubiy qo‘llanma. N. Shonazarova. Toshkent 2023
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jild. 1-jild. 2-nashr. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998 yil.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jild. 1-jild. 2-nashr. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006 yil.
5. Normamatov S. Abdulla Avloniyning til va nutq madaniyati haqidagi qarashlari. J/O‘zbek tili va adabiyoti. 2004 yil, No 4. -B.107-109.